

XO'JALIK YURUTUVCHI SUBYEKTLARDA BUXGALTERIYA BALANSINI
SHAKLLANTIRISH

Abdujabborov Islomiddin Asadillo o'g'li

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi 308- guruh talabasi

Vahobjonova Mushtariybonu Dilshodjon qizi

Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi 308- guruh talabasi

Yusupova Zilola Erkinjon qizi

Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi 208- guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali yangi tashkil qilingan ishlab chiqarish korxonalarida buxgalteriya balansini shakllantirish va unda yuz berayotgan hodisalarni aks ettirish haqida ma'lumot berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya, balans, aktiv, passiv, kapital, asosiy vosita, majburiyat, moliyaviy holat, tayyor mahsulot.

Har bir ishlab chiqarish korxonasi yoki savdo tashkilotlarda buxgalteriya balansini asosida korxonaning, tashkilotning moliyaviy holati namoyon bo'ladi. Buxgalteriya balansini bu-buxgalteriya hisoboti aniq hisobot sanasida yakunlovchi, mablag'larning sarflanishi, manbai va maqsadini ta'riflovchi, jamlovchi, umumlashtirilgan jadvalda pul hisobida aks ettiruvchi hujjat. Buxgalteriya balansini korxonada, tashkilot, firma va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mulkiy holatini qiymat ko'rinishida ta'riflab beradi. Buxgalteriya balansini umumlashtirilgan jadval shaklida korxonaning mulklari tarkibini, ularning joylashtirilishini, manbalarini, mablag'larning sarflanishi va safarbar etilishini hisobot sanasida qiymat jihatidan aks ettiradi. Buxgalteriya balansini 2 qismdan iborat bo'lib, chap tomoni aktiv, o'ng tomoni passiv deb ataladi. Aktiv va passiv bir-biriga teng bo'ladi.¹⁰¹

Endilikda ishlab chiqarish korxonasini ochsak va uning nomini "Yuksalish" deb rasmiylashtiramiz davlat xizmatlari markazi orqali. Ustav kapitalni shakllantirish asosida tashkil qilsak. Yuksalish ishlab chiqarish firmasining ustav kapitali 10000\$ ni tashkil qiladi. Ya'ni bankdagi hisob raqamida 10000\$ pul mablag'i paydo bo'ladi.

| BALANS | | | |
|------------------|----------|-----------|----------|
| Aktiv | | Passiv | |
| | | KAPITAL | |
| | | YUKSALISH | \$10 000 |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| Bankdagi H/R | \$10 000 | | |
| Kassa (naqd pul) | | | |
| JAMI: | \$10 000 | JAMI: | \$10 000 |

¹⁰¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Buxgalteriya_balansi

Buxgalteriya balansiga ko'ra (ikki yoqlama yozuv) 2 tomon teng bo'lishi kerak bo'ladi. Ishlab chiqarish korxonasini shakllantirish uchun asosiy vosita sotib olishimiz kerak bo'ladi. **Asosiy vositalar** – ishlab chiqarishning moddiy sharoitlarini ta'minlaydigan vositalar (mehnat qurollari, bino, inshoot, qurilma va boshqalar). Buxgalteriya hisobi va rejalashtirishda

| BALANS | | | |
|--------------|-----------------|----------------|-----------------|
| AKTIV | | PASSIV | |
| BINO | \$2 000 | KAPITAL | |
| TEXNIKA | \$2 000 | YUKSALISH | \$10 000 |
| TRANSPORT | \$2 000 | | |
| | | | |
| BANKDAGI H/R | \$4 000 | | |
| KASSA (NAQD) | | | |
| | | | |
| JAMI: | \$10 000 | JAMI: | \$10 000 |

asosiy vositalar tarkibiga xizmat muddati bir yildan ortiq va tannarxi bazavi xisoblashning 50 baravaridan kam bo'lmasligi kerak boladi. Asosiy vositalar buxgalteriya hisobida xo'jalikka qabul qilingan boshlang'ich bahoda aks ettiriladi. Asosiy vositalarning boshlang'ich bahosiga ularni sotib olish (bino va inshootlarni qurish) uchun qilingan haqiqiy harajat kiritiladi. Asosiy vositalar to'liq xizmat muddati davomida boshlang'ich qiymati bo'yicha hisobga olinadi.¹⁰² Aktivlar kelajakda foyda naf keltirishga xizmat qiladi. Endilikda korxonada uchun bino sotib olamiz, ya'ni 2000\$ ga pul o'tkazish yo'li orqali. Bu holatda hisob raqamimizdan 2000\$ pul chiqib ketadi. Ya'ni hisob raqamimizdagi pul 8000\$ ni tashkil qiladi. Ikki yoqlama yozuv shartiga ko'ra har ikkala tomon teng bo'lishi kerak. Bino aktiv bo'lganligi sababli binoni balansimizning aktiv tomoniga kirgizib olamiz 2000\$ holatida. Buxgalteriya operatsiyalari faqat balansimizning aktiv tomonida bo'lganligi sabab aylanma mablag'imiz o'zgargani yo'q. Endilikda ishlab chiqarishni boshlashimiz uchun tegirmon sotib olamiz. Tegirmonni ham pul o'tkazish yo'li bilan sotib olamiz. Tegirmonni ham 2000\$ ga pul o'tkazish yo'li bilan sotib olamiz. Bankdagi hisob raqamimizda 6000\$ pul qoladi. Korxonamiz uchun mashina ham sotib olishimiz kerak ishlarni tezroq bajarish uchun. Bizda hisob raqamimizda pul bo'lganligi sabab transport sotib olamiz 2000\$ pul o'tkazish yo'li orqali. Pul aylanmasi o'zgargani yo'q. Bitta korxonada ikkita ombor mavjud bo'ladi.


- 1) **Xom-ashyo ombori**
- 2) **Tayyor mahsulotlar ombori**

Ishlab chiqarish korxonamizda ishni boshlash uchun mahsulot sotib olishimiz kerak. 3000\$ ga hom-ashyo sotin oldik hisob raqamimizda esa 1000\$ qoldi. Fermer xo'jaligidan ya'na 1000\$ berib 3000\$ lik don olib keldik, ya'ni 2000\$ qarzga. Buxgalteriya balansida qarz bu majburiyat degani hisoblanadi. Majburiyatlar esa balansimizning passiv tomonida joylashgan bo'ladi.

| BALANS | | | |
|------------------|-----------------|--------------------------|-----------------|
| AKTIV | | PASSIV | |
| BINO | \$2 000 | KAPITAL | |
| TEXNIKA | \$2 000 | YUKSALISH | \$10 000 |
| TRANSPORT | \$2 000 | | |
| | | DAROMAD - XARAJAT = | FOYDA/ZARAR |
| | | | \$0 |
| OMBOR | \$6 000 | | \$0 |
| SEX | | | \$0 |
| | | JAMI FOYDA/ZARAR: | \$0 |
| | | | |
| | | QARZLAR | |
| | | FERMER | \$2 000 |
| BANKDAGI H/R | \$2 000 | TBC | \$2 000 |
| KASSA (NAQD PUL) | | | |
| | | | |
| JAMI: | \$14 000 | JAMI: | \$14 000 |

¹⁰² https://uz.wikipedia.org/wiki/Asosiy_vositalar

Passiv - korxonaning hamma qarzlari va maj-buriyatlari (aktivning teskari holati), buxgalteriya balansining o'ng qismi, korxonada mablag'larining paydo bo'lishi, egaligi va maqsadlariga qarab guruhlangan (o'z xaxiralari, boshqa muassasalardan olingan qarzlari) moliyalash manbalarini ifoda etadi.¹⁰³ Ammo fermer qarzini so'rayapti. Unga berish uchun esa pul yo'q. Lekin bankdan kredit olsak bo'ladi, ya'ni TBC kredit 3 oyga foizsiz holatda 2000\$ oldik korxonaga uchun. Buxgalteriya balans shunday holatga keldi. Fermer xo'jaligidan qarzimizni uzdik. Bankdagi hisob raqamimizda ham kassada ham pul yo'q umuman, ammo fermer xo'jaligidan ham qarzimiz qolmadi. Balansimiz esa aktiv tomoni ham passiv tomoni ham aylanma pul mablag'i 12000\$=12000\$ ga. Endilikdan ishni boshlashimiz kerak. Ishchi ishlatish uchun hech qanday pulimiz yo'qligi sabab, avval o'zimiz(oila a'zolar va yaqin qarindoshlar bilan birgalikda) ishlab turamiz. Ombordagi maxsulotning yarmini ishlab chiqarish uchun sexga beramiz.



Ishlab chiqarish sexidagi mahsulot tayyor bo'lganda uni tayyor mahsulotlar omboriga chiqaramiz. Ishlab chiqarish sexidagi mahsulotimizni yarmi tayyor bo'libdi, uni tayyor mahsulotlar omboriga qabul qilamiz. Sexda 6000\$lik mahsulot bo'ldi, uni 3000\$ tayyor bo'lganini sexdan chiqaramiz. Sexda 3000\$ lik tayyor mahsulotlar omborida esa 3000\$ mahsulot paydo bo'ladi. Tayyor bo'lgan mahsulotimizni 5000\$ ga naqd pulga sotdik. Kelib tushgan pulni kassaga kiritimiz. Mahsulot ishlab

chiqarilguncha bo'lgan harajatomiz 3000\$ bo'lgan edi, lekin uni 5000\$ga sotdik, qolgan 2000\$ hozircha bizga daromad hisoblanadi. Uni buxgalteriya balansimizning majburiyatlar tomoniga daromad hisobida qabul qilmiz. Aylanma pul mablag'imiz 16000\$ tashkil etmoqda. Korxonamiz un ishlab chiqaruvchi korxonaga bo'lganligi sabab har bir mahsulotni

| BALANS | | | |
|-------------------------|-----------------|-------------------------|--------------------|
| AKTIV | | PASSIV | |
| BINO | \$2 000 | KAPITAL: | |
| TEXNIKA | \$2 000 | YUKSALISH | \$10 000 |
| TRANSPORT | \$2 000 | | |
| | | | |
| | | DAROMAD | XARAJAT |
| | | \$5 000 | \$3 000 |
| | | | FOYDA/ZARAR |
| OMBOR | \$3 000 | | \$2 000 |
| SEX | | | |
| TAYYOR MAHSULOT OMBOR | | | |
| | | JAMI FOYDA/ZARAR | \$2 000 |
| | | | |
| | | QARZLAR: | |
| | | FERMER | \$2 000 |
| | | TBC | \$2 000 |
| | | | |
| BANKDAGI H/R | \$2 000 | | |
| KASSA (NAQD PUL) | \$5 000 | | |
| | | | |
| JAMI: | \$16 000 | JAMI: | \$16 000 |

ishlab chiqarish jarayonida albatta chiqindi chiqadi. Chiqindi mahsulotning tannarxi bo'lmaydi. Daromad olishning bir necha yo'llari borligi sabab, chiqindi sotib ham daromad qilsa bo'ladi. TBC bankdan kreditimizni uzish muddati bo'ldi. Unga hisob raqamimizdan pul o'tkazish orqali qarzimizni to'lab yuboramiz. Ishlab chiqarish sexida mahsulot qolmaganligi sabab ombordagi mahsulotning 2000\$ ni ishlab chiqarishga

¹⁰³ [https://uz.wikipedia.org/wiki/Passiv_\(buxgalteriya\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Passiv_(buxgalteriya))

beramiz. Omborda 1000\$ ishlab chiqarish seximizda esa 2000\$ lik mahsulot paydo bo'ladi. Ishlab chiqarish sexidagi mahsulotning yarmi tayyor bo'ldi. Tayyor mahsulotning barchasini 3000\$ ga pul o'tkazish yo'li orqali sotdik. Hisob raqamimizda ya'na 3000\$ pul paydo bo'ldi. Sotilgan mahsulotning tannarxi uchun 1500\$ sarf-harajat bo'lgandi. Daromaddan harajatni ayirib tashlasak foyda yoki zarar kelib chiqadi. Daromad bu — keng ma'noda kirim bo'lgan har qanday pul mablag'lari yoki pul qiymatiga ega bo'lgan moddiy boyliklarni olish, iqtisodiy sub'yekt o'z faoliyati natijasiga kura oladigan pul va tovar — moddiy tushum¹⁰⁴. Xarajat — ishlab chiqariladigan mahsulot yoki ko'rsatiladigan xizmat hajmiga bog'liq bo'lgan chiqimlar, (mas, materiallar, xom ashyo sotib olish, ishbay xodimlar mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq sarflar)¹⁰⁵

Fermer xo'jaligidan ham qarzimizni uzishimiz kerak bo'ldi. Naqd pul berish orqali qarzimizni to'lab yubordik. Shunda bankdagi hisob raqamimizda 3000\$ kassadagi naqd pul ham 3000\$ ni tashkil etdi. Korxonamizning hozrgi holatga daromadi 3500\$ ni tashkil qiladi. Qolaversa xom-ashyo omborida ham 1500\$ lik hali tayyor bo'lmagan mahsulotimiz bor hisoblanadi. Aylanma pul mablag'imiz esa shu kun holatiga 13500\$ ni tashkil qiladi.

| BALANS | | | |
|-----------------------|-----------------|-------------------------|-----------------|
| AKTIV | | PASSIV | |
| BINO | \$2 000 | <i>KAPITAL:</i> | |
| TEXNIKA | \$2 000 | YUKSALISH | |
| TRANSPORT | \$2 000 | | \$10 000 |
| | | | |
| | | DAROMAD | XARAJAT |
| | | \$5 000 | \$3 000 |
| OMBOR | \$1 500 | \$3 000 | \$1 500 |
| SEX | | | \$2 000 |
| TAYYOR MAHSULOT OMBOR | | | \$1 500 |
| | | JAMI FOYDA/ZARAR | |
| | | | \$3 500 |
| | | <i>QARZLAR:</i> | |
| | | FERMER | |
| | | TBC | |
| BANKDAGI H/R | \$3 000 | | |
| KASSA (NAQD PUL) | \$3 000 | | |
| | | | |
| JAMI: | \$13 500 | JAMI: | \$13 500 |

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki buxgalteriya balansini shakllantirish va uni ishlash holati samarali olib borish natijasida berilgan aktiv va passivlar o'z o'rniga qo'yib shakllantirish orqali korxonamizning har oylikmi, choraklikmi yoki yillik hisob-kitoblari o'z o'rnida chiqadi va korxonaga qanday mahsulot, xom-ashyo yoki asosiy vositalar sotib olinganligi va yil oxirida qolgan qoldiq va chiqib ketganlarini aniqlash ham muammo bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Buxgalteriya_balansi
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Asosiy_vositalar
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Passiv_\(buxgalteriya\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Passiv_(buxgalteriya))
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Daromad>
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Xarajatlar>

¹⁰⁴ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Daromad>

¹⁰⁵ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Xarajatlar>